O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH
RESPUBLIKA ILMIY-METODIK
MARKAZI

TRM
YOSH OLIMLAR VA TADQIQOTCHILAR MAKTABI

# Mavzu: Ilmiy tadqiqot ishlarini intellektual faoliyat natijalariga mualliflik huquqi

**Muallif:** DSc., dotsent X.Xujamatov

Toshkent-2026

YOSH OLIMLAR VA TADQIQOTCHILAR MAKTABI

1-SLAYD

# Ilmiy tadqiqot ishlari va intellektual faoliyat natijalariga mualliflik huquqi

**ILMIY NATIJANI YARATISH, MUALLIFLIKNI BELGILASH VA HUQUQIY HIMOYA QILISH ASOSLARI**




## G'OYADAN AMALIY NATIJAGACHA BO'LGAN YO'L

**G'OYA**
Yangi g'oya va muammoni aniqlash

→

**ILMIY TADQIQOT**
Tadqiqot o'tkazish, ma'lumotlar to'plash va tahlil qilish

→

**INTELLEKTUAL NATIJA**
Maqola, dissertatsiya, dastur, ma'lumotlar bazasi, metodika, model va boshqalar

→

**HUQUQIY HIMOYA**
Mualliflik huquqi, patent yoki boshqa huquqiy vositalar bilan himoya qilish

→

**QONUNIY FOYDALANISH VA AMALIY QIYMAT**
Natijani qonuniy ravishda foydalanish va keng joriy etish

**MANBALAR:**

[1] O'zbekiston Respublikasi Qonuni, "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida", O'RQ-42, 20.07.2006. – LexUZ: https://lex.uz/docs/-1022944

[2] O'zbekiston Respublikasi Qonuni, "Elektron hisoblash mashinalari uchun yaratilgan dasturlar va ma'lumotlar bazalarining huquqiy muhofazasi to'g'risida". – LexUZ: https://lex.uz/acts/-143983

[3] World Intellectual Property Organization. Copyright. – WIPO. https://www.wipo.int/en/web/copyright

2-SLAYD

# Intellektual faoliyat natijasi nima?



“ Intellektual faoliyat natijasi – insonning ijodiy mehnati bilan yaratilgan va obyektiv shaklda ifodalangan, huquqiy himoyaga ega boʻlishi mumkin boʻlgan natijadir. [1]

## Ilmiy tadqiqot jarayonida yaratiladigan natijalar odatda quyidagi shakllarda boʻladi:

- adabiy (ilmiy maqola, monografiya, dissertatsiya);
- ilmiy-metodik (metodika, oʻquv qoʻllanma, darslik);
- dasturiy (kompyuter dasturi, mobil ilova va boshqalar);
- maʼlumotlar bazasi (strukturalangan maʼlumotlar toʻplami);
- texnik va texnologik (ixtiro, foydali model, sanoat namunasi);
- boshqa natijalar (rasm, jadval, xarita, infografika, audio, video va h.k.).

## ILMIY TADQIQOTDA YARATILADIGAN ASOSIY NATIJALAR

### 1. MUALLIFLIK HUQUQI BILAN HIMOYA QILINADIGAN NATIJALAR

- Ilmiy maqola
- Dissertatsiya, avtoreferat
- Monografiya, kitob
- Maʼruza matni, taqdimot
- Metodika, oʻquv qoʻllanma
- Ilmiy rasm, jadval, xarita, infografika
- Kompyuter dasturi (kod)
- Maʼlumotlar bazasi

### 2. SANOAT MULKI OBYEKTLARI (PATENTLANADIGAN) NATIJALAR

- Ixtiro
- Foydali model
- Sanoat namunasi
- Seleksiya yutuği
- Texnologik yechim
- Qurilma, konstruksiya
- Integrallashgan mikrosxema topologiyasi

### 3. TIJORAT SIRI SIFATIDA HIMOYA QILINADIGAN NATIJALAR

- Texnologik jarayonlar
- Biznes va marketing rejalari
- Noyob maʼlumotlar va maʼlumotlar toʻplamlari
- Maxfiy formulalar va algoritmlar
- Boshqa oshkor etilmagan maʼlumotlar

**Muhim!** Intellektual faoliyat natijasi boʻlishi uchun u ijodiy xarakterga ega boʻlishi va obyektiv shaklda ifodalangan boʻlishi lozim. Gʻoya, ilmiy usul, algoritmning umumiy prinsipi yoki oddiy faktlarning oʻzi huquqiy muhofaza qilinmaydi. [1, 2]


**MANBALAR:**

[1] Oʻzbekiston Respublikasi Qonuni, “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar toʻgʻrisida”, OʻRQ-42, 20.07.2006. – LexUZ: https://lex.uz/docs/-1022944

[2] Oʻzbekiston Respublikasi Qonuni, “Elektron hisoblash mashinalari uchun yaratilgan dasturlar va maʼlumotlar bazalarining huquqiy muhofazasi toʻgʻrisida”. – LexUZ: https://lex.uz/acts/-143983

[3] World Intellectual Property Organization (WIPO). Copyright. – WIPO: https://www.wipo.int/en/web/copyright


WIPO

# Ilmiy natijalarni huquqiy muhofaza qilishning normativ asoslari

Ilmiy tadqiqot ishlari va intellektual faoliyat natijalariga oid mualliflik huquqi milliy qonunchilik va xalqaro huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadi.




## MILLIY HUQUQIY ASOSLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Qonuni "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida" (O‘RQ-42, 20.07.2006)
2. O‘zbekiston Respublikasi Qonuni "Elektron hisoblash mashinalari uchun yaratilgan dasturlar va ma’lumotlar bazalarining huquqiy muhofazasi to‘g‘risida" (17.05.2006)
3. O‘zbekiston Respublikasi Qonuni "Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to‘g‘risida"
4. O‘zbekiston Respublikasining boshqa normativ-huquqiy hujjatlari va idoraviy tartiblari

## XALQARO HUQUQIY ASOSLAR

- Bern konvensiyasi (Adabiy va badiiy asarlarni himoya qilish to‘g‘risida, 1886)
- WIPO mualliflik huquqi shartnomalari
- TRIPS bitimi – intellektual mulk sohasidagi minimal standartlar
- Boshqa xalqaro shartnomalar va tavsiyalar

**Normativ-huquqiy bazani bilish – ilmiy natijani to‘g‘ri himoya qilish va qonuniy foydalanishning muhim sharti.**

**Manbalar:**

[1] O‘RQ-42, 20.07.2006. "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida". LexUZ: https://lex.uz/docs/-1022944

[2] O‘zbekiston Respublikasi Qonuni, "EHM uchun yaratilgan dasturlar va ma’lumotlar bazalarining huquqiy muhofazasi to‘g‘risida". LexUZ

[3] WIPO. Copyright and Related Rights. https://www.wipo.int

4-SLAYD

# Mualliflik huquqi bilan himoya qilinadigan ilmiy natijalar

Mualliflik huquqi g‘oya, usul yoki faktning o‘zini emas, ularning muallif tomonidan ijodiy ifodalangan shaklini himoya qiladi.



## HIMOYA QILINADI

- Ilmiy maqolalar, dissertatsiyalar, monografiyalar
- O‘quv-metodik qo‘llanmalar, ma’ruzalar matni
- Ilmiy rasm, jadval, diagramma, infografika
- Taqdimotlar, ma’ruza slaydlari, plakatlar
- Kompyuter dasturlari (kod va obyekt ko‘rinishi)
- Ma’lumotlar bazalari (strukturasi va tanlovi)
- Foto, audio, video, xarita, texnik chizmalar
- Tarjimalar, qayta ishlangan (adaptatsiya) asarlar

## HIMOYA QILINMAYDI

- G‘oyalar, konsepsiyalar, umumiy prinsiplar
- Ilmiy usullar, formula yoki algoritmlarning o‘zi
- Faktlar, sanalar, raqamlar va statistik ma’lumotlarning o‘zi
- Qisqa iboralar, sarlavhalar, oddiy ro‘yxatlar
- Rasm yoki jadvalning g‘oyaviy mazmuni (lekin ifoda shakli emas)
- Jamoat mulki bo‘lgan asarlar
- Ochiq e’lon qilingan, erkin foydalanish uchun berilgan ma’lumotlar (ochiq litsenziya asosida)

**Muhim farq:** himoya aynan ijodiy ifoda shakliga taalluqli bo‘lib, oddiy g‘oya yoki ilmiy faktning o‘ziga emas.


**Manbalar:**

[1] O‘RQ-42, 20.07.2006. “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida”. LexUZ: https://lex.uz/docs/-1022944

[2] WIPO. What is Copyright? https://www.wipo.int/en/web/copyright

[3] J. Ginsburg. Copyright Law: Cases and Materials. Wolters Kluwer, 2020.

5-SLAYD

# Muallifning shaxsiy va mulkiy huquqlari



Mualliflik huquqi muallifga ikki guruh huquqlarni beradi: shaxsiy nomulkiy va mulkiy huquqlar.
Bu huquqlar asar yaratilgan paytdan boshlab vujudga keladi va qonun bilan himoya qilinadi.

## 1. SHAXSIY NOMULKIY HUQUQLAR
(muallifning doimiy huquqlari)

**Muallif deb e'tirof etilish huquqi**
(asar muallifi sifatida tan olinishi).

**Asar nomi ko'rsatilish huquqi**
(ism, taxallus yoki boshqa belgi bilan ko'rsatilishi).

**Asar daxlsizligini ta'minlash huquqi**
(asar buzilmasin, o'zgartirilmasin yoki boshqa shaklda zarar yetkazilmasin).

**Asar e'lon qilish huquqi**
(asarni ommaga taqdim etish yoki e'lon qilmaslik huquqi).



Shaxsiy nomulkiy huquqlar muallif umrbod saqlanadi, shuningdek uning vafotidan keyin ham muhofaza qilinadi **(amalda 50 yil).**

## 2. MULKIY HUQUQLAR
(muallifga iqtisodiy manfaat beradi)

**Asarni nusxa ko'paytirish huquqi**
(bosma, elektron, raqamli va boshqa shakllarda).

**Asarni tarqatish huquqi**
(sotish, hadya qilish, ijaraga berish va boshqalar).

**Asarni ommaviy axborot vositalarida yoki internetda joylashtirish huquqi.**

**Asarni tarjima qilish, qayta ishlash, adaptatsiya qilish huquqi.**

**Litsenziya berish va mualliflik haqi (royalti) olish huquqi.**

**Mulkiy huquqlar muallifning o'zi yoki huquq egasining (ixtiyoriy shaxs yoki tashkilotning) ruxsati bilan amalga oshiriladi.**


**Manbalar:**

[1] O'RQ-42, 20.07.2006. "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida", 13–20-moddalar. LexUZ: https://lex.uz/docs/-1022944

[2] WIPO. Copyright and Related Rights. https://www.wipo.int/en/web/copyright

[3] N. Edward. Intellectual Property: The Law of Trademarks, Copyrights, Patents, and Trade Secrets. Aspen Publishers, 2021.

# Hammualliflik, ilmiy rahbarlik va tashkilot bilan munosabatlar

Mualliflik faqat tadqiqotga mazmunli intellektual hissa qo‘shgan shaxslarga beriladi. Ilmiy rahbarlik, texnik yordam va tashkiliy ko‘mak alohida baholanadi.



## A. KIM MUALLIF HISOBLANADI?

- Tadqiqot g‘oyasi, dizayni yoki metodologiyasiga sezilarli hissa.
- Ma’lumotlarni tahlil qilish va talqin etishda mazmunli ishtirok.
- Matnni yozish yoki ilmiy jihatdan muhim qayta ishlash.
- Yakuniy variantni tasdiqlash va natija uchun mas’uliyatni bo‘lishish.

## B. KIM MINNATDORCHILIK BO‘LIMIDA BERILADI?

- Texnik yordam ko‘rsatgan shaxslar.
- Ma’lumot yig‘ish yoki ma’muriy ko‘mak bilan cheklangan ishtirokchilar.
- Tarjima, tahrir, dizayn yoki formatlashda yordam berganlar.
- Moliyalashtirish, grant yoki tashkiliy qo‘llab-quvvatlash berganlar.
- Mualliflik mezonlarini to‘liq bajarmagan, ammo foydali hissa qo‘shganlar.

## C. QAROR DARAXTI: MUALLIFMI YOKI YO‘Q?

1. Sezilarli intellektual hissa bormi?
   - Yo‘q → Minnatdorchilik bo‘limi
   - Ha ↓
2. Yozish yoki mazmunli ilmiy tahrirda qatnashdimi?
   - Yo‘q → Muallif emas / qo‘shimcha hissa zarur
   - Ha ↓
3. Yakuniy variantni tasdiqlaydimi va mas’uliyatni bo‘lishadimi?
   - Ha → Muallif
   - Yo‘q → Muallif emas

### OLDINDAN KELISHIB OLINADI

- Mualliflar ketma-ketligi.
- Hammualliflik ulushi va vazifalari.
- Affiliation va corresponding author.
- Yozma kelishuv va tashkilot talablari.

**Muhim qoida:** lavozim, ilmiy unvon yoki rahbarlikning o‘zi mualliflik uchun yetarli asos bo‘la olmaydi.

**Manbalar:**


[1] O‘RQ-42, 20.07.2006. “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida”. LexUZ: https://lex.uz/docs/-1022944

[2] WIPO. Copyright and Related Rights. https://www.wipo.int

[3] ICMJE Recommendations. Defining the Role of Authors and Contributors. https://www.icmje.org

# Mualliflik huquqi, patent va boshqa himoya vositalari farqi

Har bir himoya vositasining o‘ziga xos maqsadi, obyektiga qo‘yiladigan talablar va beriladigan huquq tartibi mavjud.




## 4 QATORLI TAQQOSLASH JADVALI

| | MUALLIFLIK HUQUQI | PATENT | Dastur va ma’lumotlar bazasi | TIJORAT SIRI |
|---|---|---|---|---|
| 1. OBYEKT | Asar (ilmiy, adabiy, badiiy, musiqa, dastur, maqola va boshqalar). | Ixtiro, foydali model, sanoat namunasi (texnik yechim yoki tashqi ko‘rinish). | Kompyuter dasturi, ma’lumotlar bazasi (tanloviga ko‘ra). | Texnologik yoki biznes ma’lumotlari (sir saqlanadigan ma’lumotlar). |
| 2. HIMOYA USULI | Asar yaratilgan paytdan boshlab avtomatik himoya, ro‘yxatdan o‘tkazish shart emas. | Ro‘yxatdan o‘tkazilgandan so‘ng davlat tomonidan beriladigan mutlaq huquq. | Mualliflik huquqi asosida avtomatik himoya; ro‘yxatdan o‘tkazish ixtiyoriy. | Sir saqlash rejimi orqali himoya (qonun talablariga muvofiq). |
| 3. RASMIYLASHTIRISH VA BERILISH | Rasmiylashtirish ixtiyoriy (ixtiyoriy ravishda mualliflik guvohnomasi olinishi mumkin). | Ariza beriladi, ekspertiza o‘tkaziladi va ijobiy qaror qabul qilingach, patent beriladi. | Rasmiylashtirish ixtiyoriy (guvohnoma olish mumkin). | Rasmiy ro‘yxatdan o‘tkazilmaydi; sir saqlash tartibi joriy etiladi (nizom, shartnoma va h.k.). |
| 4. NATIJA | Muallifning shaxsiy va mulkiy huquqlari himoya qilinadi. | Ixtirochiga (egasiga) foydalanish, taqiqlash va ruxsat berish huquqlari beriladi. | Muallifning shaxsiy va mulkiy huquqlari himoya qilinadi. | Sir saqlangan davr davomida raqobat ustunligi ta’minlanadi. |

To‘g‘ri himoya vositasini tanlash innovatsiya va ijodiy natijalarni samarali boshqarish, ularni tijoratlashtirish va huquqbuzarliklardan himoya qilish imkonini beradi.

**Manbalar:**

[1] O‘zbekiston Respublikasining “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida”gi Qonuni. O‘RQ–42, 20.07.2006.

[2] O‘zbekiston Respublikasining “Patentlar to‘g‘risida” Qonuni. O‘RQ–776, 25.12.2001.

[3] O‘zbekiston Respublikasining “Raqobat to‘g‘risida” Qonuni. O‘RQ–673, 13.01.2022.

8-SLAYD

# Akademik halollik va mualliflik huquqi buzilishining oldini olish

Ilmiy faoliyatda halollik, to‘g‘ri iqtibos, mualliflikni adolatli belgilash va natijalarni ishonchli taqdim etish muhim hisoblanadi.




## XAVFLI HOLAT → TO‘G‘RI YECHIM

| XAVFLI HOLAT | TO‘G‘RI YECHIM |
|---|---|
| **1.** Plagiat | Har bir g‘oya, matn yoki natijaga aniq havola berish; to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘chirma qo‘shtirnoq va manba bilan beriladi. |
| **2.** O‘z-o‘zini plagiat qilish | Oldingi ishlarni qayta ishlatishda buni ochiq ko‘rsatish va zarur joyda o‘z ishiga ham iqtibos berish. |
| **3.** Soxta mualliflik | Mualliflik faqat mazmunli intellektual hissa qo‘shgan shaxslarga beriladi; qolganlar minnatdorchilik bo‘limida ko‘rsatiladi. |
| **4.** Manbani noto‘g‘ri iqtiboslash | Tanlangan uslubda (APA, IEEE va b.) to‘liq va izchil bibliografik rasmiylashtirish amalga oshiriladi. |
| **5.** Rasm, jadval, kod yoki materialdan ruxsatsiz foydalanish | Mualliflik huquqini tekshirish, litsenziya yoki ruxsatni aniqlash, manbani ko‘rsatish va zarur bo‘lsa rozilik olish. |
| **6.** Ma’lumotlarni soxtalashtirish yoki buzib ko‘rsatish | Xom ma’lumotlarni saqlash, natijalarni shaffof bayon qilish va tahlilni qayta tekshirish imkonini yaratish. |
| **7.** Sun’iy intellektdan noto‘g‘ri foydalanish | AI vositalaridan yordamchi sifatida foydalanish, yakuniy mazmunni muallifning o‘zi tekshirishi, tahrir qilishi va zarur bo‘lsa foydalanish faktini ochiqlashi lozim. |

**Muhim qoida:** Akademik halollik – ilmiy ishonchlilikning asosi; mualliflik huquqiga rioya qilish esa ilmiy natijadan qonuniy va mas’uliyatli foydalanish shartidir.

**Manbalar:**

[1] O‘RQ-42, 20.07.2006. “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida”. LexUZ: https://lex.uz/docs/-1022944

[2] WIPO. Copyright and Related Rights. https://www.wipo.int

[3] COPE. Core Practices / Publication Ethics. https://publicationethics.org

9-SLAYD

# Ilmiy natijani himoya qilishning amaliy algoritmi

Mualliflik huquqi va intellektual faoliyat natijalarini himoya qilish amaliy jihatdan bosqichma-bosqich rejalashtirilishi lozim.




## 7 BOSQICHLI YO'L XARITASI

**1. Mualliflik va hissa ulushini aniqlash**

Mualliflar, hammualliflik ulushi va mas'uliyatni oldindan kelishib olish.

**2. Manbalarni rasmiylashtirish**

Iqtibos, bibliografiya va foydalanilgan materialarni to'g'ri ko'rsatish.

**3. Dastlabki materiallarni saqlash**

Qo'lyozma, fayl, yozishmalar, laboratoriya natijalari va dalillarni arxivlash.

**4. DOI, ORCID va repozitoriylardan foydalanish**

Muallif identifikatsiyasi, maqola kuzatuvi va ochiq saqlash imkonini yaratish.

**5. Zarur holatda ro'yxatdan o'tkazish yoki patentlash**

Dastur, ma'lumotlar bazasi, ixtiro yoki foydali model uchun tegishli himoya shaklini tanlash.

**6. Litsenziya yoki shartnomani belgilash**

Foydalanish shartlari, ruxsat, huquq egasi va royalti masalalarini yozma rasmiylashtirish.

**7. Buzilish holatida dalillarni yig'ish va murojaat qilish**

Huquqbuzarlikni qayd etish, dalil to'plash va tegishli organlarga murojaat qilish.

**Muhim qoida:** ilmiy natijani himoya qilish bir martalik emas, balki yaratishdan foydalanishgacha davom etadigan uzluksiz boshqaruv jarayonidir.

**Manbalar:**

[1] O'RQ-42, 20.07.2006. "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida". LexUZ: https://lex.uz/docs/-1022944

[2] WIPO. Copyright and Related Rights. https://www.wipo.int

[3] ORCID / Crossref. Research identifiers and DOI infrastructure. https://orcid.org | https://www.crossref.org

10-SLAYD

# Amaliy holatlar, tekshiruv ro‘yxati va xulosa

Ilmiy natijalarni yaratish, rasmiylashtirish va himoya qilishda uchraydigan vaziyatlar bo‘yicha amaliy yo‘l-yo‘riqlar.



## UCHTA AMALIY HOLAT

| Holat | Vaziyat | Asosiy xavf | To‘g‘ri yechim |
|---|---|---|---|
| 1 Maqolani hammualliflikda yozish | Bir necha tadqiqotchi bitta maqola ustida ishlaydi. | Mualliflar tartibi, hissa ulushi va mas’uliyat bo‘yicha kelishmovchilik. | Mualliflar tarkibi, ketma-ketligi va vazifalarini oldindan yozma kelishib olish; yakuniy matnni barcha mualliflar tasdiqlashi. |
| 2 Tadqiqot doirasida dastur yaratish | Ilmiy loyiha davomida kompyuter dasturi yoki ma’lumotlar bazasi yaratiladi. | Mualliflik egasi, foydalanish tartibi va rasmiylashtirish aniqlanmagan. | Muallifni belgilash, dastlabki kodni saqlash, zarur bo‘lsa ro‘yxatdan o‘tkazish va foydalanish shartlarini yozma rasmiylashtirish. |
| 3 Yangi texnik qurilma yoki algoritm ishlab chiqish | Amaliy natija yangilik va amaliy ahamiyatga ega. | Natijani erta oshkor qilish yoki himoya shaklini noto‘g‘ri tanlash. | Yangilikni dastlabki baholash, dalillarni yig‘ish, zarur bo‘lsa patentlash yoki sir saqlash tartibini qo‘llash. |

## TADQIQOTCHI UCHUN 10 BANDLI TEKSHIRUV RO‘YXATI

1. Mualliflar va hissa ulushi aniq belgilanganmi?
2. Barcha manbalar to‘g‘ri iqtibos qilinganmi?
3. Dastlabki fayl va yozuvlar saqlanganmi?
4. Xom ma’lumotlar tartib bilan jamlanganmi?
5. Mualliflik huquqi yoki boshqa himoya shakli tanlanganmi?
6. Zarur bo‘lsa ro‘yxatdan o‘tkazish choralari ko‘rilganmi?
7. Foydalanish ruxsati va shartlar belgilanganmi?
8. Hammualliflar yakuniy natijani tasdiqlaganmi?
9. Oshkor etishdan oldin xavflar baholanganmi?
10. Huquqbuzarlik holatida murojaat tartibi ma’lummi?

**Xulosa:** ilmiy natijani to‘g‘ri himoya qilish — uni yaratish, hujjatlashtirish, kelishib olish va qonuniy foydalanishni bir butun jarayon sifatida boshqarishni talab etadi.


**Manbalar:**

[1] O‘RQ-42, 20.07.2006. “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida”. LexUZ: https://lex.uz/docs/-1022944

[2] O‘zbekiston Respublikasi Qonuni. “Elektron hisolash mashinalari uchun yaratilgan dasturlar va ma’lumotlar bazalarining huquqiy muhofazasi to‘g‘risida”. LexUZ: https://lex.uz/acts/-143983

[3] Jahon intellektual mulk tashkiloti. Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar bo‘yicha tushuntirish materiallari. https://www.wipo.int

# E’TIBORINGIZ UCHUN RAHMAT!

https://raqamlitalim.trm.uz/yosholim